

**AN'ANAVIY XONANDALIK VA ZAMONAVIY IJROCHILIK
MADANIYATINING RIVOJLANISHI**

Qudratov Mexroj Pardaql o'g'li

Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi

Usmonova Mushtariy Shavkat qizi

Xalqaro innovatsion universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola an'anaviy xonandalik madaniyatining yuzaga kelishi, rivojlanishi, badiiy tafakkur taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan tortib, milliy-ma'naviy madaniyat rivojining turli davrlarida ham o'zining yuksak namunalari asosida nafaqat talabalarning ma'naviy-ruhiy madaniyatini tarbiyalashda, balki odob-axloqiy me'yorlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: an'anaviy xonandalik, musiqa madaniyati, mumtoz musiqa merosi, maqom xonandaligi, maqom qo'shiqchilari, o'zbek xalq musiqa merosi.

O'zbek milliy musiqa va maqom san'ati uzoq o'tmishga borib taqaladi. Mamlakatimizda musiqa madaniyatining tarkibiy qismi bo'lmish maqom san'atining rivojlanishi o'z navbatida an'anaviy xonandalik madaniyatini yoshlarda tarkib toptirishga xizmat qiladi. Maqom milliy madaniy meros xalqimizning ajralmas, o'zligini anglatuvchi qadriyat sifatida aholining ijtimoiy hayot ijod sarchashmalari asosida yuzaga kelganligi bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

An'anaviy xalq og'zaki kasbiy musiqa ijodi an'alarining yuzaga kelishi, davrlar osha gullab yashnashi, badiiy tafakkur taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan tortib, milliy-ma'naviy madaniy rivojining turli davrlarida ham o'zining yuksak namunalari asosida nafaqat tarbiyalashda ham muhim o'rin tutadi.

Hozirgi kunda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda musiqiy tarbiya ulkan ahamiyatga ega. Bu o'rinda musiqa yo'nalishi pedagog kadrlari va ularning kasbiy mahorati o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Musiqa insonning ruhiy olamiga bevosita ta'sir etadi. Estetik didini shakllantirib beradi. Musiqaning yo'nalishi, janri va ijrosi uning umumiy darajasini belgilaydi. Qo'shiqchilik san'at

turi sifatida yuksak ahamiyatga ega yo'nalishlardan biridir. Qo'shiqchilik tarixi uzoq o'tmishga ega. O'rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixiy va qadimiy yozma manbalar, arxeologik topilmalar asosida mukammal rivojlangan. An'anaviy qo'shiqchilikning dastlabki namunalari uzoq yillik tarixga ega. Musiqiy merosimizni mukammal yaxlit fan darajasiga olib chiqishda Abu Nasr Muhammad al-Farobiyning xizmatlari katta. Al-Farobiy qadimgi musiqiy namunalarni ijrosi va taxlilini mukammal o'rgangan. Al-Farobiyning bu fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi shundan iboratki, izlanishlar samarasi tariqasida musiqa nazariyasi ilmiy fanini yaratdi. "Musiqa uslublari haqida kitob" nomli risolasida musiqa ijrochiligi keng yoritib berilgan. Yana bir allomalarimizdan biri Ibn Sino ham musiqa ilmiga oid ko'plab asarlar yaratgan. Ibn Sino tibbiyot ilmi mutaxassisi bo'lgani barchamizga ma'lum. "Shifo kitob" nomli risolasida olim musiqa ilmi, kuy va ashulalar tahlili hamda uning insonga ta'siri tushuntirib berilgan. O'n to'qqizinchi yigirmanchi asr musiqa madaniyati rivojlanish tarixida Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf al-Kotib, al-Xorazmiy, Safauddin Abdulmo'min, Muhammad ibn Ma'sud ash-Sheroziy, Al-Xusayniy kabi olimlarning xizmati beqiyos. An'anaviy qo'shiqchilik o'zida qator yo'nalishlarni shakllantiradi. Bular qatoriga maishiy ashulalar, dostonlar, lirik va ashqi mavzudagi ashulalar, marosim mehnat qo'shiqlari, lapar-yallalar, bolalar qo'shiqlari kabilarni kiritish mumkin. Bu qo'shiqlarda xalqning ko'p yillik tarixi azaliy turmush tarzi ifodalanadi. An'anaviy xalq qo'shiqlari davr bilan qadamma-qadam rivojlanib boradi. An'anaviy qo'shiqchilikning rivojlanishida ijro yo'llari katta ahamiyatga ega. An'anaviy qo'shiqlar va maqom ijrolari xalqimiz hayotiga ma'naviy ozuqa sifatida ta'sir etmoqda. An'anaviy qo'shiqchilik janri orasida maqom ijrochiligi alohida ajralib turadi.

Milliy vokal maktabining tug'ilishi va shakllanishi vokal san'ati sohasidagi janrni belgilab beruvchi milliy maqom bilan chambarchas bog'liq. Milliy maqom o'ziga xos xususiyatlarga egabo'lib, ijro uslubining umumiy tabiatiga nisbatan ham xonandaga o'ziga xos talablar qo'yadi, har bir milliy qo'shiqchilik maktabida professional xonandalar, eng avvalo, musiqaning tabiati bilan belgilanadi. Vokal

pedagogika ijro amaliyotidan so'ng talablarni umumlashtiradi va ushbu amaliyotga vazifasidan kelib chiqqan holda o'zining uslubiy ko'rsatmalarini ishlab chiqadi. Shubois ovoz tayyorlashga oid uslubiy ishlar qaysi tarixiy davrlarda yaratilganligi, milliy musiqani gavdalantirish uchun shu usul yordamida qaysi xonandalar tayyorlanganligini hisobga olgan holda ko'rib chiqilishi kerak.

Ovoz apparati rivojlanishining umumiy fiziologik qonuniyatlarini aks ettiruvchi faqat uslubiy tamoyillar umuman amal qiladi va barcha davrlar va xalqlar uchun amal qiladi. O'zbek an'anaviy qo'shig'i nihoyatda rang-barang, obrazlar diapazoni keng: lirikdan tortib chuqur ijtimoiygacha. Shuning uchun ular shakl jihatidan juda farq qiladi. O'zbek qo'shig'ining rang-barangligi uning turli timsollarini talab qilardi. Maqomlarga xos xususiyat ularning samimiyligi, mazmunining teranligi, psixologizmi, so'z bilan musiqa o'rtasidagi uzviy bog'liqlikdir. Qo'shiqning so'zi yetakchi so'zbo'lib, kuyning xarakterini belgilaydi. Hikoyachilar aytganidek, baxshi, qo'shiq gapiradi, lekin ohang o'z-o'zidan keladi.

Boshqa san'at turlari qatori eng ommaviy san'at turi - musiqiy estrada rivoji uchun yangi sharoit, yangi tizim joriy etildi. 1996 yil 5 - apreldagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining (PF - 1419 son) Farmoniga binoan "O'zbeknavo" gastrol - konsert birlashmasi tashkil etildi. 2001 - yilda Vazirlar Mahkamasining "Estrada qo'shiqchilik san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida" gi (2000 - yil 26 - iyundagi 272 - sonli) qarori e'lon qilindi. Qarorda Respublika keng musiqiy jamoatchilik vakillari, estrada san'atining taniqli namoyandalari, "Ma'naviyat va ma'rifat" Kengash'i, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zteleradiokompaniya, Yozuvchilar uyushmasi, Bastakorlar uyushmasi, Badiiy akademiya va boshqa manfaatdor tashkilotlarning takliflari asosida O'zbekiston qaxramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Voxidov raisligida Milliy estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlantirish Kengashi tuzildi, uning asosiy vazifasi etib: - Estrada jamoalari, yakkaxon ijrochilar hamda boshqa san'atkorlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning ijodiy iqtisodiy, huquqiy manfaatlarini himoya qilish. - Zamonaviy estrada san'atining o'zbek musiqa madaniyati taraqqiyotidagi o'rni, g'oyaviy-

badiiy yo'nalishlari, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlikda rivojlantirish tamoyillarini belgilash. - Mamlakat miqyosida o'tkaziladigan bayramlar, festivallar, ko'rik -tanlovlar, tamosha-shoular, xalq saillari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarga doir tavsiyalar tayyorlash. Milliy estrada san'atining monitoringini tashkil etish, soxani rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan turli anjumanlar, ilmiy-ijodiy simpoziumlarni muntazam ravishda o'tkazib borish, o'z davriy nashrlarini yo'lga qo'yish. - Soha rivojiga munosib xissa qo'shayotgan san'atkorlarning nomzodlarini davlat mukofotlariga tavsiya qilish, o'zining turli nufuzli mukofotlarini ta'sis qilish, estrada namoyandalari, avvalambor, yoshlarni moddiy va ma'naviy jixatdan rag'batlantirish, tegishli o'quv yurtlariga tavsiya etish va xokazolar ko'rsatilgan edi. Estrada san'atini rivojlantirish borasidagi ishlarning samaradorligini os'hirish uchun "O'zbeknavo" gastrol - konsert birlashmasi tugatilib, uning negizida Milliy estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashining asosiy maqsad va vazifalarini ado etadigan xo'jalik xisobidagi "O'zbeknavo" estrada birlashmasi tashkil etilishi belgilab qo'yildi. Birlashma qoshida ijodiy ko'maklashuvchi vakillar guruhi kengashi faoliyat ko'rsata boshladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori nafaqat estrada qo'shiqchiligi soxasida faoliyat yurituvchi subyektlar, balki umuman musiqa san'ati ijrochiligi bilan shug'ullanuvchi guruhlar va yakka shaxslar ijodiy faoliyati uchun keng yo'l ochib berdi va mazkur soxa vakillari oldiga tegishli vazifalarni qo'ydi. Ayniqsa, "san'atkorlarning ijodiy nufuzi, mahorati, professional malakasi, repertuar saviyasi"ga qarab "O'zbeknavo estrada birlashmasi" tomonidan maxsus ruxsatnoma (litsenziya) lar berilishi ayni muddao edi. Bu mazmunan sayoz, badiiy jixatdan zaif qo'shiqlarning ma'naviy tarbiya ishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini cheklash bilan birgalikda, kasbiy ijrochilik meyorini belgilashda muhim omil bo'ldi. O'z-o'zidan litsenziya asosida faoliyat yuritadigan san'atkorlarning maqomi kasbiy ijrochilarga tenglashtirildi. Oddiy qilib aytganda, haqiqiy ijodga ko'mak beruvchi va rivojlantiruvchi maxsus tashkilot ish boshladi. "O'zbeknavo" estrada birlashmasining Qoraqolpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududiy bo'linmalari faoliyatlariga ham raxbarlik

qilishi, mazkur tashkilot oldiga qo'yilgan vazifalarni markazlashgan tarzda boshqarilishini ko'zda tutilganligi bilan birgalikda, badiiygoyaviy yaxlitlikni ta'minlashga ham qaratildi. "O'zbeknavo" estrada birlashmasi bilan Anor Nazarov, Alisher Ikromov, Alisher Rasulov, Doni Ilyosov, Baxrulla Lutfullaev, Dilorom Omonullaeva, Sultonali Rahmonov kabi bastakorlar, Qodir Mo'minov, Shokir Axmedov, Ma'mura Ergasheva, Nasiba Madrahimova, Muyassar Sotvoldieva, Viloyat Oqilova kabi baletmeysterlar ijodiy hamkorlik qildi. Bu hamkorlik Mardon Mavlonov, G'ulomjon Yoqubov, Zulayxo Boyxonova, Sobir Mo'minov, Ilxom Farmonov, Gulsanam Mamazoitova, Avaz Olimov, Izzat Ibragimov, Abdulla Shoma'ripov, Rayxon Ganieva, Rashid Xoliqov, Anvar G'aniev, G'iyos Boytoev, Maxmud Namozov, Mavlyuda Asalxo'jaeva, Toxir Sodiqov, Sevara Nazarxon, Shuxrat Qayumov, Ilxom Ibroximov, Asadulla Xoliqov, Shuxrat Dadajonov, Feruza Jumaniyozova, Dilnoza Ismiyaminova, Abror Parpiev, Samandar Hamraqulov, Yodgor Mirzajonov, Joxongir Otajonov, Jasur Mirsagatov, Sardor Rahimxon, Iroda Dilroz, Lola Axmedova, Oksana Nechitaylo, Diana Ziyatdinova, Firdavs Pazleddinova, Xulkar Abdullaeva, Abduvali Rajabov, Maksed Utemiradov, Mirzaqul Safaeva, Gulnoz Utegenova, Sevinch Mo'minova, Shaxlo Rustamova, Og'abek Sobirov, Anvar Sobirov, Erkin Xudoyqulov, Davron Ergashev, Ozoda Abdugafforova, Akmal Isroilov, Sherzod Davronov, Furqat Mirzaev, Nasiba Raxmonova, Nosila Raximova, Mavjuda Olimova, Toshpo'lat Matkarimov, Aziz Rajabiy va boshqalar ijodining mavzu jixatdan boyishida muhim o'rin tutdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.Ŷ.2017.
2. M.Jalilov,J.Sadirov "Qŷshiqlar xristomatiyasi" Ŷqituvchi nashriyoti-1995
3. X.Xamidov "Ŷzbek an'banaviy qŷshiqchilik madaniyati tarixi" Ŷqituvchi nashriyoti Toshkent-1996
3. M.Jalilov "Qŷshiqlar xristomatiyasi" 1-2 kitob Toshkent-2002

4. Hamitova Sunbula Bahodir qizi. (2024). Performance of national and foreign classical works on the stage of the Theater of Young Audiences.
5. Hamitova Sunbula Bahodir qizi. (2024). Yosh tomoshabinlar teatri sahnasida milliy va xorijiy klassik asarlarning sahnalashtirilishi.
6. Хамитова С.Б. Художественные и идеологические проблемы репертуара театра//МіастоПрэісцёўска. –2023. –Т. 43. –С. 88-91.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tʻgʻrisida”gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz. 2009
8. N.Abdullaev “Ўзбекистон sanʼati tarixi” Toshkent 2007.
9. Lola Abidova “Jaz tarixi” Toshkent 2007.
10. Galatskaya “Xorijiy Mamlakatlar musiqasi” Toshkent 2006. 6. Z.Yunusova “Musiqi oʻqitish metodikasi.”